

## CHET TILLARIDAN NEMIS TILIGA O'ZLASHGAN SO'ZLAR KLASSIFIKATSIYASI VA OLIMLARNING ILMYIY QARASHLARI

*Boltaboyeva Shahzoda Jaloladdin qizi*

*O'zMU Filologiya va tillarni o'qitish 4-kurs talabasi*

*E-Mail: boltaboyevashahzoda2005@gmail.com*

*Ilmiy rahbar: Umarova Zamira*

*O'zMu Nemis tili kafedrasi o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada nemis tilidagi o'zlashma so'zlarning mohiyati, ularning klassifikatsiyasi hamda tilshunos olimlarning ilmiy qarashlari tahlil qilinadi. O'zlashmalar o'zlashish darajasi, manba tili, o'zlashish usuli va lingvistik darajalarga ko'ra tasniflanadi. Shuningdek, nemis va rus tilshunoslari tomonidan ilgari surilgan nazariyalar asosida o'zlashmalarning til taraqqiyotidagi o'rni yoritiladi. Maqolada zamonaviy nemis tilida ingliz tilidan kirib kelayotgan o'zlashmalarning roli ham muhokama qilinadi.

**Annotation:** This article analyzes the nature of loanwords in the German language, their classification, and the scholarly perspectives of linguists. Loanwords are classified according to their degree of assimilation, source language, method of borrowing, and linguistic levels. In addition, the role of borrowings in language development is examined based on theories proposed by German and Russian linguists. The article also discusses the role of loanwords originating from English in contemporary German.

**Kalit so'zlar:** o'zlashma so'zlar nazariyasi, nemis tilshunosligi, leksik o'zlashma, o'zlashma klassifikatsiyasi, Lehnwort, Fremdwort, kalka (Lehnübersetzung), lingvistik moslashuv, morfologik bog'liqlik, anglizmlar, leksik tizim rivoji.

**Keywords:** Theory of loanwords, German linguistics, lexical borrowing, classification of loanwords, loanword (Lehnwort), foreign word (Fremdwort), calque (loan translation), linguistic adaptation, morphological integration, Anglicisms, development of the lexical system.

Bugungi globalashuv davrida tillar o'rtasidagi o'zaro ta'sir kuchayib bormoqda. Har bir til o'z rivojlanish jarayonida boshqa tillar bilan aloqaga kirishadi va bu jarayon natijasida o'zlashma so'zlar paydo bo'ladi. Nemis tili ham bundan mustasno emas. Tarixiy jihatdan qaraganda, nemis tiliga o'zlashmalar bir necha bosqichda kirib kelgan: qadimgi davrda – asosan lotin tilidan; o'rta asrlarda – fransuz tilidan; yangi davrda – ingliz tilidan. Bu jarayonlar tilning leksik boyishini ta'minlab, yangi tushunchalarni ifodalash imkonini yaratishda ulkan hissa qo'shgan. O'zlashma so'zlar (nem. Entlehnungen) bu bir tilning boshqa til bilan tarixiy, madaniy, iqtisodiy yoki siyosiy

aloqalari natijasida kirib kelgan va ma'lum darajada qabul qiluvchi til tizimiga moslashgan leksik birliklardir.

Har qanday tilning lug'at boyligi faqat ichki rivojlanish hisobiga emas, balki boshqa tillar bilan o'zaro ta'sir natijasida ham shakllanadi. Shu jihatdan o'zlashmalar til taraqqiyotining muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Nemis tilshunosligida o'zlashma so'zlarni ifodalash uchun asosan ikki asosiy termin qo'llanadi: *Lehnwort* va *Fremdwort*. *Lehnwort* deb, boshqa tildan kirib kelib, nemis tilining fonetik, morfologik va ortografik tizimiga to'liq moslashgan so'zlarga aytiladi. Bunday so'zlar ko'pincha o'zlashganligi sezilmaydi va ular tilning "o'z" elementi sifatida qabul qilinadi.

Masalan, *Fenster* (lotin tilidagi fenestra so'zidan kelib chiqqan) bugungi kunda sof nemischa so'z sifatida idrok etiladi. *Fremdwort* esa o'zining asl tiliga xos ayrim belgilarini talaffuz, yozilish yoki urg'u xususiyatlarini qisman saqlab qolgan o'zlashma so'zdir. Masalan, "Job" ingliz tilidan olingan bo'lib, "Ish" ma'nosida ishlatiladi, lekin nemischa *Arbeit* so'zidan farqli ravishda uslubiy bo'yoqqa egadir. Bu kabi so'zlar ko'pincha yangi tushunchalar bilan bog'liq bo'ladi va tilga nisbatan yaqinda kirib kelgan bo'ladi. Shu bilan birga, o'zlashma so'zlar til tizimida nafaqat yangi nominativ birliklar yaratadi, balki semantik boyish, uslubiy rang-baranglik va terminologik aniqlikni ham ta'minlaydi.

### ***O'zlashma so'zlar klassifikatsiyasi:***

O'zlashma so'zlarni turli mezonlarga ko'ra tasniflash mumkin. Eng asosiy klassifikatsiya turlari – o'zlashish darajasi, manba tili va o'zlashish usuliga ko'ra ajratishdir. *O'zlashish darajasiga ko'ra klassifikatsiya:* O'zlashma so'zlar qabul qiluvchi tilga moslashish darajasiga qarab ikki asosiy guruhga bo'linadi:

#### **1. To'liq o'zlashgan so'zlar (Lehnwörter)**

Bu guruhdagi so'zlar nemis tilining fonetik, grammatik va morfologik qonun-qoidalariga to'liq moslashgan bo'ladi. Ularning kelib chiqishi faqat etimologik tahlil orqali aniqlanishi mumkin. Masalan, *Keller* va *Mauer* so'zlari qadimda lotin tilidan o'zlashgan bo'lsa-da, bugungi kunda ular to'liq nemis tiliga singib ketgan.

#### **2. Qisman o'zlashgan so'zlar (Fremdwörter)**

Bu turdagi so'zlar o'zining asl shakliga xos ayrim xususiyatlarni saqlab qoladi. Ularning talaffuzi yoki yozilishi nemis tilining umumiy qoidalariga to'liq mos kelmasligi mumkin. Masalan, *Restaurant* va *Hotel* so'zlarida fransuz tiliga xos fonetik va ortografik elementlar sezilib turadi. Bunday so'zlar ko'pincha xalqaro terminlar sifatida ishlatiladi.

*Manba tiliga ko'ra klassifikatsiya:* Nemis tilidagi o'zlashma so'zlar turli tarixiy davrlarda turli tillardan kirib kelgan. Bu jarayon til rivojlanishining muhim bosqichlarini aks ettiradi. Lotin tilidan o'zlashmalar Yevropada uzoq vaqt davomida ilm-fan, din va ta'lim tili bo'lib xizmat qilgan. Shu sababli nemis tiliga ko'plab ilmiy va diniy terminlar aynan lotin tilidan o'zlashgan. Masalan: *Universität*, *Professor*,

Akademiker. Bu soʻzlar asosan akademik va rasmiy uslubda qoʻllanadi. Fransuz tilidan oʻzlashmalar oʻrta asrlar va yangi davr boshlarida saroy madaniyati va diplomatiya tili sifatida katta nufuzga ega boʻlgan. Natijada nemis tiliga madaniyat, moda va maishiy hayotga oid koʻplab soʻzlar kirib kelgan. Masalan: Büro, Mode.

Ingliz tilidan oʻzlashmalar zamonaviy davrda ingliz tili global aloqa, texnologiya va biznes tili sifatida yetakchi oʻrin tutadi.

Shu sababli nemis tilidagi eng faol oʻzlashmalar manbai aynan ingliz tili hisoblanadi. Masalan: Internet, Marketing. Bu jarayon baʼzan “anglizismen” deb ham ataladi. Italyan tilidan oʻzlashmalar asosan sanʼat, musiqa va savdo sohalari orqali nemis tiliga taʼsir koʻrsatgan. Masalan: Bank, Pizza. Ayniqsa musiqa terminologiyasida italyan tilining roli juda katta.

### ***Oʻzlashish usuliga koʻra klassifikatsiya:***

Oʻzlashma soʻzlar tilga kirib kelish usuliga koʻra ham farqlanadi. Bu jarayon tilning ichki imkoniyatlari va tashqi taʼsirlarning oʻzaro uygʻunligini koʻrsatadi.

*Bevosita oʻzlashmalar* bu holatda soʻz toʻgʻridan-toʻgʻri boshqa tildan olinadi va maʼlum darajada moslashtiriladi. Masalan, Computer, Hotel kabi soʻzlar shunday yoʻl bilan kirib kelgan. *Kalkalar (Lehniübersetzung)* usulida xorijiy soʻz yoki ibora tarkibiy qismlarga ajratilib, har bir qismi alohida tarjima qilinadi. Natijada yangi, lekin mazmunan oʻxshash birlik hosil boʻladi. Masalan, ona tili-nemischa Muttersprache soʻzining soʻzma-soʻz tarjimasi hisoblanadi.

*Yarim kalkalar (Lehnmischung)* bu usulda soʻzning bir qismi tarjima qilinadi, ikkinchi qismi esa asl shaklida saqlanadi. Natijada aralash tipdagi birlik yuzaga keladi. Bunday oʻzlashmalar zamonaviy til rivojida koʻp uchraydi. Masalan: nemischa “Kurzarbeit”-kurz (nemischa-qisqa) Arbeit (ish), lekin koʻpincha boshqa tillarda “short-work” kabi yarim shakllarda uchraydi. *Semantik oʻzlashmalar* bu holatda yangi soʻz olinmaydi, balki mavjud soʻzga yangi maʼno yuklanadi. Yaʼni, soʻz shaklan oʻzgarmaydi, lekin uning semantikasi kengayadi. Bu hodisa tilning ichki rivojlanish imkoniyatlari bilan bogʻliq boʻlib, oʻzlashmaning noaniq, lekin muhim shakli hisoblanadi.

### ***Olimlarning ilmiy qarashlari:***

Oʻzlashma soʻzlar masalasi tilshunoslikda koʻplab olimlar tomonidan oʻrganilgan. Ularning qarashlari oʻzlashma jarayonining mohiyatini chuqurroq anglashga yordam beradi. Nemis tilshunosi **Werner Betz** oʻzlashma soʻzlarni, ayniqsa, kalkalar (Lehniübersetzungen) nuqtai nazaridan chuqur oʻrgangan. Uning asosiy eʼtibori shundaki, oʻzlashma faqat toʻgʻridan-toʻgʻri soʻz olish bilan cheklanmaydi, balki tarjima orqali ham yuzaga keladi. Masalan, ingliz tilidagi skyscraper soʻzi nemis tilida Wolkenkratzer tarzida ifodalanadi. Bu yerda har bir komponent tarjima qilingan (sky – Wolken, scraper – Kratzer).

Betz bunday birliklarni alohida guruh sifatida ajratib, ularning til rivojidadagi rolini muhim deb hisoblaydi. **Peter von Polenz** nemis tilining tarixiy taraqqiyotini chuqur tahlil qilgan holda, o'zlashma so'zlarni til tarixining ajralmas qismi sifatida baholaydi. Uning fikricha, har bir tarixiy davr til tarkibida o'z izini qoldiradi va bu izlar, ayniqsa, o'zlashma so'zlar orqali yaqqol namoyon bo'ladi. Tilga kirib kelgan o'zlashmalar muayyan davrdagi madaniy, siyosiy va iqtisodiy aloqalarning natijasi bo'lib, ular orqali jamiyatning tashqi dunyo bilan bo'lgan munosabatlarini kuzatish mumkin. Shuning uchun ham Polenz o'zlashmalarni nafaqat lingvistik hodisa, balki tarixiy-madaniy jarayonlarning muhim ko'rsatkichi sifatida talqin qiladi.

**Theodor Lewandowski** esa o'zlashma so'zlarga ko'proq funksional nuqtai nazardan yondashadi. U o'zlashmalarni til boyishining muhim vositasi deb hisoblab, ularning lug'at tarkibini kengaytirishdagi rolini alohida ta'kidlaydi. Uning fikricha, jamiyat rivojlanishi bilan birga yangi tushunchalar, hodisalar va texnologiyalar paydo bo'ladi, bu esa tilga yangi so'zlarning kirib kelishini tabiiy zaruratga aylantiradi. O'zlashmalar aynan shu ehtiyojni qondirib, tilning ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi, sinonimik qatlamni boyitadi hamda nutqning stilistik rang-barangligini ta'minlaydi. Shu bois Lewandowski o'zlashma so'zlarni til uchun xavf emas, balki uning rivoji va yangilanishini ta'minlovchi muhim omil sifatida baholaydi.

**K.Heller** klassifikatsiyasi o'zlashmalarni kelib chiqishiga ko'ra emas, balki nemis tilining ichki leksik tizimidagi o'rni va semantik munosabatlari asosida tahlil qilish imkonini beradi. Shu bilan u o'zlashgan birliklarning sinonimik qatlamni boyitishi, yangi tushunchalarni nomlashi va semantik kengayish jarayonida ishtirok etishini ko'rsatadi. **M. N. Stepanova va T. V. Chernishova** qarashlari: Nemis tilining leksikologiyasini o'rganishda muhim manbalardan biri hisoblangan "Lexikologie der deutschen Gegenwartssprache" asarida M.N. Stepanova va T.V. Chernishova o'zlashma so'zlarni tizimli ravishda tasniflab, ularning kelib chiqishi va funksional xususiyatlariga alohida e'tibor qaratadilar. Ularning fikricha, o'zlashmalarni tasniflashda eng muhim mezonlardan biri – o'zlashmaning turi va shaklidir. Shu asosda ular o'zlashmalarni bir necha asosiy guruhlarga ajratadi, jumladan:

Predmet va so'z o'zlashuvi (Sach- und Wortentlehnung)

Sof so'z o'zlashuvi (reine Wortentlehnung)

Predmet va so'z o'zlashuvi holatida yangi tushuncha yoki predmet bilan birga uni ifodalovchi so'z ham tilga kirib keladi. Bu jarayon odatda madaniy, texnologik yoki ijtimoiy yangiliklar bilan bog'liq bo'ladi. Ya'ni, qabul qiluvchi til lug'atida avval mavjud bo'lmagan realiyalar aynan o'zlashma orqali nomlanadi. Masalan, texnologiya rivoji natijasida nemis tiliga kirib kelgan Laptop, Scanner, Podcast, Internet kabi so'zlar nafaqat yangi nom, balki yangi tushunchaning o'zini ham ifodalaydi. Bu yerda til faqat so'zni emas, balki u bilan bog'liq butun konseptual mazmuni ham qabul

qiladi. Shu sababli bunday o'zlashmalar zarur va funksional jihatdan muhim hisoblanadi.

Sof so'z o'zlashuvi esa boshqacha xususiyatga ega. Bu holatda tilga kirib kelayotgan so'z aslida mavjud tushunchani ifodalaydi, ya'ni u yangi predmetni emas, balki allaqachon mavjud bo'lgan tushunchaning alternativ nomini beradi. Masalan, nemis tilida mavjud bo'lgan Fernsprecher o'rniga Telefon (yunon-lotin kelib chiqishi), die Besprechung o'rniga das Meeting, der Leiter-der Chef so'zlarining qo'llanilishi shunday holatlarga misol bo'la oladi. Bu esa til ichida sinonimiya va uslubiy farqlanishni yuzaga keltiradi. Stepanova va Chernishova ta'kidlaydilar, predmet bilan bog'liq o'zlashmalar til taraqqiyotida muhimroq ahamiyatga ega, chunki ular yangi bilim va tajribaning tilga kirib kelishini ta'minlaydi. Aksincha, sof so'z o'zlashuvlari ko'proq uslubiy yoki kommunikativ ehtiyoj bilan bog'liq bo'lib, ba'zan ortiqcha variantlar paydo bo'lishiga ham olib kelishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, nemis tilidagi o'zlashma so'zlar til taraqqiyotining ajralmas qismi bo'lib, ular tilning leksik boyishini, ifoda imkoniyatlarining kengayishini hamda yangi tushunchalarni nomlash jarayonini ta'minlaydi. O'zlashmalar turli mezonlar o'zlashish darajasi, manba tili, o'zlashish usuli va lingvistik darajalar asosida tizimli ravishda klassifikatsiya qilinadi. Bu esa ularning til tizimidagi o'rni va funksional ahamiyatini chuqurroq anglash imkonini beradi. Tadqiqot davomida ko'rib chiqilgan ilmiy qarashlar shuni ko'rsatadiki, o'zlashma so'zlar faqat tashqi ta'sir mahsuli emas, balki tilning ichki rivoj mexanizmlari bilan chambarchas bog'liq hodisadir. Werner Betz, Peter von Polenz, Theodor Lewandowski, K. Heller hamda M.N. Stepanova va T.V. Chernishova kabi olimlarning yondashuvlari o'zlashmalarni turli nuqtai nazardan izohlab, ularning nafaqat nominativ, balki semantik, stilistik va kommunikativ funksiyalarini ham ochib beradi. Ayniqsa, zamonaviy davrda ingliz tilidan kirib kelayotgan o'zlashmalar nemis tilining rivojida muhim rol o'ynab, globalizatsiya jarayonining lingvistik ifodasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bois o'zlashma so'zlarni o'rganish nafaqat tilshunoslik, balki madaniy va ijtimoiy jarayonlarni anglashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Betz, W. Lehnwörter und Lehnprägungen im Deutschen. Berlin: Akademie Verlag, 1949.
2. Bußmann, H. Lexikon der Sprachwissenschaft. Stuttgart: Kröner Verlag, 2008.
3. Eisenberg, P. Grundriss der deutschen Grammatik. Stuttgart: Metzler, 2013.
4. Glück, H. (Hrsg.). Metzler Lexikon Sprache. Stuttgart/Weimar: Metzler, 2010.
5. Heller, K. Lexikologie und Semantik der deutschen Gegenwartssprache. München: Fink Verlag, 1980.
6. Keller, R. Sprachwandel. Tübingen: Francke Verlag, 1994.

7. Lewandowski, T. Linguistisches Wörterbuch. Heidelberg: Quelle & Meyer, 1990.
8. Schippan, T. Lexikologie der deutschen Gegenwartssprache. Tübingen: Niemeyer Verlag, 2002.
9. Stepanova, M. N., Chernishova, T. V. Lexikologie der deutschen Gegenwartssprache. Moskau: Vysšaja škola, 1975.
10. von Polenz, P. Deutsche Sprachgeschichte vom Spätmittelalter bis zur Gegenwart. Berlin/New York: Walter de Gruyter, 1999.